



## BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

**To'xtayeva Nafisa Mo'minovna**

*Surhondaryo viloyati, Termiz shahri 12- sonli maktab Huquq fani o'qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda eng dolzARB masalalardan biri korrupsiyaga qarshi kurashish haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, adolat, jamiyat, konstitutsiya, axborot.

Adolat bor joyda jamiyat yuksalishi tan olingen haqiqat. Zotan, adolat asosiga qurilgan davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Bu bizga tarixdan ma'lum, buyuk sultanat hisoblanmish Temuriylar davri tarixdan ma'lum. Biroq jamiyatdagi nohaqliklar, adolatsizliklar, aytish joiz bo'lsa "turli o'yinlar" taraqqiyotining har qanday bosqichidagi davlatni ortga tortadi. Rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinniki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. Corrumper – buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi



korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan bиринчи davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rлиги qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham bиринчи navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rлиги qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruв apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impeachmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rнining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Korrupsiya jamiyat hayoti uchun tahdid soluvchi salbiy omil ekanini bilamiz. Shu sababli, davlatimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga jiddiy choralar ko'rilmоqda.

Korrupsiya jamiyat hayoti uchun tahdid soluvchi salbiy omil ekanini bilamiz. Shu sababli, davlatimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga jiddiy choralar ko'rilmоqda.

Mamlakatimizda "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" tadbirlarining tashkil etilishi shunday ishlar davomidir.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning barcha sohalari rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, tarqqiyotni sekinlashtiradi, davlatni ich-ichidan yemirib boradi, xalqni xonavayron etadi, huquq va manfaatlar buzilishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda butun jahon miqyosida ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Ayni paytda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. Bu borada har birimizdan hushyorlik va mas'uliyatlilik talab etiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, fuqarolarimizning faolligi kuzatilmasa, korrupsiya huquqbazarliklari, tamagirlik kabi holatlar haqida tegishli davlat



idoralarini ogohlantirmasa, xabar bermasa ushbu illatdan butunlay qutilishning iloji yo'q. Korrupsiyaga qo'l urish natijasida ayrim g'arazli maqsadga ega shaxslarning bu kabi illati sababli halol va o'z mehnat faoliyatiga sodiqlik bilan sidqidildan xizmat qilib kelayotgan xodimlarning ham nomiga dog' tushishi achinarli holatlardan yana biridir.

Har qanday ko'rinishdagi korruptsiyaning sodir etilishida, ularning ko'payishida va o'z vaqtida barham berilmasligiga o'zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo'lib kelmoqda. Har bir fuqaro korrupsiya jinoyatlariga guvoh bo'lganida bunday holat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qo'rmasdan xabar berishi lozim. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarning davlat himoyasida bo'lishi kafolatlangan hamda bu to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning so'zlagan nutqi.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. Siz huquqni bilasizmi kitobi
4. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Kitobi Islom Karimov
5. [google.uz](http://google.uz)